

DOI: 10.5281/zenodo.15714237

Link: <https://zenodo.org/records/15714237>

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY IMKONIYATLARINING AHAMIYATI

Shaxidova Dilafruz Muxtarovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

“Iqtisodiyot kafedrasi “ katta o’qituvchisi

dil.muxtarovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirish jarayonida hududiy imkoniyatlarning o’rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Har bir hududning o’ziga xos tabiiy resurslari, infratuzilmaviy sharoitlari, demografik tarkibi va iqtisodiy salohiyati kichik biznes turlari va ularning muvaffaqiyat darajasiga bevosita ta’sir ko’rsatishi i bayon etiladi, O’zbekiston hududlarida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari aniqlanadi. Shuningdek, mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali kichik biznesni hududiy rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so’zlar: kichik biznes, hududiy rivojlanish, iqtisodiy salohiyat, tadbirkorlik muhit, infratuzilma, mahalliy resurslar, hududlararo farq, strategik rejalashtirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kichik biznes – iqtisodiy o’sishning muhim drayverlaridan biri bo’lib, u yangi ish o’rinlari yaratish, aholining daromadlarini oshirish, hududiy resurslardan oqilona foydalanish orqali mahalliy iqtisodiyotni faollashtiradi. Har bir hudud o’zining tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy imkoniyatlari bilan kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning o’rni, ularni amaliyotda to’g’ri va samarali qo’llash masalalari yoritiladi. Kichik biznes har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o’sishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Uning rivojlanishi yangi ish o’rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish, ichki bozorni to’ldirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, postpandemiya davrida global iqtisodiy muvozanatning tiklanishi jarayonida kichik biznes subyektlari mamlakatlar iqtisodiyotining barqarorlik kafolatiga aylanmoqda.[2]

Kichik biznesni rivojlantirish va uning hududiy aspektlari bo’yicha nufuzli olimlar va amaliyotchilar tomonidan ko’plab tadqiqotlar olib borilgan. O’zbekiston va boshqa mamlakatlarda kichik biznesning hududiy farqlari va imkoniyatlari masalasi bir qator ilmiy maqolalar va strategik hujjatlarda yoritilgan.

Kichik biznes va hududiy rivojlanish munosabati bo’yicha jahon iqtisodiyotida kichik biznes iqtisodiy o’sishning asosiy drayveri sifatida ko’riladi (Beck va Demirguc-Kunt, 2006).[3] Ular kichik biznesning yangi ish o’rinlarini yaratish, innovatsiyalarni jalb qilish va hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilishdagi o’rnini ta’kidlaydilar. O’zbekiston sharoitida esa Mahkamov va Sobirov (2021) kichik biznesning hududiy ixtisoslashuvi va mahalliy resurslarga bog’liqligi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.[4]

Hududiy imkoniyatlarning ahamiyati haqida Milliy iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlari (2019) hududning tabiiy resurslari, infratuzilma va ijtimoiy sharoitlarning kichik biznesning rivojlanishiga ta’sirini ko’rsatadi. Shuningdek, Jahon

Banki (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy salohiyat va hududiy strategiyalar kichik biznesning barqarorligini ta'minlashda muhim omillar sifatida ko'rsatildi[5].

Amaliy tajribalar va davlat siyosati jihatlarini bo'yicha tahlil qilsak O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 martdagi PQ-2909-son qarori bilan tasdiqlangan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi" hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha amaliy qadamlarni belgilaydi. Bu hujjat kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun hududiy infratuzilmani yaxshilash, soliq imtiyozlarini berish va kredit resurslarini kengaytirishni ko'zda tutadi (Davlat statistika qo'mitasi, 2022).[2]

Hududiy farqlar masalasi xalqaro tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Masalan, Storper va Venables (2004) hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar va kichik biznesni rag'batlantirish mexanizmlarini tahlil qilgan. O'zbekistonda esa, Tashkent iqtisodiyot universiteti olimlari hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish uchun innovatsion va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydilar (Rahmonov, 2020).

Josef Schumpeter kichik biznesni iqtisodiy o'zgarishlarning va innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida ko'rgan. Uning fikricha, kichik tadbirkorlik bozor iqtisodiyotida yangiliklarni yaratib, raqobatni rag'batlantiradi. Hududiy imkoniyatlar, ya'ni hududning tabiiy va ijtimoiy resurslari, kichik biznesning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, Schumpeter nazariyasiga ko'ra, hududiy ixtisoslashuv kichik biznesni rivojlantirish strategiyasida asosiy omil hisoblanadi.

Michael Porter hududiy iqtisodiy rivojlanishda "cluster" (klaster) konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, ma'lum bir hududda o'zaro bog'langan kompaniyalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlari tarmog'i kichik biznes uchun sinergiya yaratadi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Hududiy imkoniyatlar, ayniqsa infratuzilma, malakali ishchi kuchi va texnologik bazani rivojlantirish orqali, kichik biznesning raqobat kuchini kuchaytiradi.

Edmund Phelps iqtisodiy o'sishni inson kapitali va innovatsiya bilan bog'lab, hududiy imkoniyatlar doirasida malakali kadrlar tayyorlash va bilimga asoslangan iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni ta'kidlaydi. Hududlarda ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish kichik biznesning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlar ularni takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatini o'rganadi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni boshqarish va hududiy imkoniyatlar orqali kichik biznesni rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning o'ri va ahamiyatini o'rganish maqsad qilingan bo'lib, bu borada nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligida kompleks tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarining hududiy xususiyatlarga mos rivojlanish sur'atlari, mavjud

infratuzilmaviy shart-sharoitlar, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi va davlat siyosatining amaliy ta'siri o'rganildi.

Avvalo, mavzuga doir mahalliy va xalqaro iqtisodchi olimlar – xususan J. Shumpeter, M. Porter, A. Sen, E. Phelps, R. Florida va O'zbekistonlik iqtisodchilar (B. Mahkamov, D. Rahmonov va boshqalar)ning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Ularning nazariy yondashuvlari asosida kichik biznes va hududiy imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlik tushunchaviy asosda yoritildi.

Tadqiqot davomida statistik tahlil metodlari keng qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida hududlar kesimida kichik biznes subyektlari soni, ularning bandlikdagi ulushi, YAIMga qo'shgan hissasi, soliq tushumlari va boshqa ko'rsatkichlar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida viloyatlar o'rtasida iqtisodiy faollik va biznes imkoniyatlarining taqqoslamali tahlili olib borildi.

Shuningdek, empirik tadqiqotlar doirasida kichik biznes vakillari (tadbirkorlar, mahalliy hokimiyat vakillari, xususiy sektor rahbarlari) o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Respondentlarga infratuzilma sifati, kreditga chiqish imkoniyatlari, kadrlar yetishmovchiligi, davlat dasturlaridan foydalanish holati kabi masalalar yuzasidan savollar berildi. Bir necha tadbirkorning javoblari asosida kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlab chiqildi.

Bundan tashqari, tanlab olingan tadbirkor va iqtisodiy soha mutaxassisi bilan chuqurlashtirilgan intervyular tashkil etildi. Bu intervyular orqali statistik ma'lumotlar orqali ko'rsatib bo'lmaydigan real muammolar, amaliy tajribalar va takliflar aniqlashtirildi.

Hududlararo farqlarni aniqlash maqsadida Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Qashqadaryo, Qoraqalpog'iston va Jizzax viloyatlari o'rnak sifatida tanlandi. Bu hududlardagi iqtisodiy sharoitlar, resurs salohiyati, infratuzilma darajasi, aholi bandligi va biznes faoliyatiga oid ijtimoiy muhit ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda ayrim cheklovlar ham mavjud bo'ldi. Jumladan, barcha viloyatlar bo'yicha to'liq va yangilangan statistik ma'lumotlarni olish imkoni cheklangan, ayrim respondentlar ochiq fikr bildirishdan tiyilgan holatlar kuzatildi. Shuningdek, tadqiqotda faqat kichik biznes subyektlari qamrab olingani sababli o'rta biznes vakillarining qarashlari to'liq o'rganilmadi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi kichik biznes va hududiy imkoniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur va har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, nazariy, statistik va empirik yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Ushbu metodik asos tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ta'minladi.

Natijalar va tahlillar

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan **Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining** 3-maqsadida aynan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, byurokratik

to'siqlarni kamaytirish va hududiy tenglikni ta'minlash ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan.

2024 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 75% dan ortig'i aynan kichik biznes subyektlari hisoblanadi va ular mamlakat YAIMining qariyb 55 foizini shakllantirmoqda (Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida).[8] Ammo bu ko'rsatkich hududlar kesimida farqli ko'rinishda namoyon bo'lmoqda: Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlarida kichik biznes sezilarli darajada faollashgan bo'lsa-da, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax va Navoiy viloyatlarida bu soha hali to'liq potensialini namoyon eta olmagan. Buning sababi nimada? Har bir hudud o'ziga xos tabiiy resurslar, ijtimoiy tarkib, transport-logistika infratuzilmasi, madaniy va geoiqtisodiy imkoniyatlarga ega. Masalan, Surxondaryo viloyati Afg'oniston bilan chegaradoshligi bois eksportga yo'naltirilgan kichik sanoatni rivojlantirishda ustunlikka ega. Shu bilan birga, Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi tarixiy meros turizmga asoslangan kichik biznesning rivojlanishiga turtki bo'layotganini ko'rish mumkin

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning hal qiluvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekiston hududlarida kichik biznes faoliyatining rivojlanish darajasi o'zgaruvchan bo'lib, bu farqlar asosan iqtisodiy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va geografik omillar bilan bog'liq ekani aniqlandi.

Birinchidan, statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, poytaxt va sanoatlashgan hududlarda (Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi) kichik biznes subyektlarining soni, YAIMdagi ulushi, hamda xizmatlar ko'rsatish va savdo sohalaridagi faollik boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori. Buning asosiy sabablari sifatida rivojlangan infratuzilma, moliyaviy xizmatlarga oson kirish, yuqori iste'mol bozorining mavjudligi va malakali ishchi kuchining ko'pligi qayd etildi.

Ikkinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida kichik biznesning rivojlanish sur'atlari sust bo'lib, bu holat u yerda infratuzilmaning yetarli emasligi, investitsion muhitning zaifligi, davlat dasturlaridan to'liq foydalana olmaslik va kadrlar yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda ishtirok etgan tadbirkorlarning 65 foizi aynan moliyalashtirish va infratuzilma muammolarini asosiy to'siq sifat

Tadqiqot natijalari

Ushbu tadqiqot davomida kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning o'rni, ta'sir darajasi va istiqbollari chuqur o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston hududlarida kichik biznes faoliyatining rivojlanish sur'atlari bir xilda emas, ya'ni ular mavjud infratuzilma, tabiiy resurslar, ishchi kuchi salohiyati va mahalliy bozor imkoniyatlariga qarab keskin farqlanadi. Ushbu farqlar hududiy imkoniyatlardan foydalanish darajasiga va mahalliy ixtisoslashuvga bog'liq ekani isbotlandi.[12]. Tadqiqotda aniqlanishicha, iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada rivojlangan hududlarida (masalan, Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Andijon viloyati) kichik biznes subyektlarining soni, ularning YAIMdagi ulushi, soliqlardagi hissasi va bandlikni ta'minlashdagi o'rni boshqa hududlarga qaraganda ancha yuqori.

Bu esa, birinchidan, rivojlangan transport va kommunikatsiya infratuzilmasi, ikkinchidan, aholining xarid qobiliyati va zichligi, uchinchidan esa moliyaviy institutlar va davlat qo'llab-quvvatlovining kengroq mavjudligi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan nisbatan orqada qolayotgan hududlar — Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida kichik biznes subyektlarining faolligi past bo'lib, tadbirkorlik muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, ushbu hududlardagi tadbirkorlarning 65 foizi moliyalashtirishda qiyinchiliklar, 54 foizi esa infratuzilma muammolari (elektr energiyasi, yo'l, internet) mavjudligini asosiy to'siq sifatida qayd etdi. Bu esa kichik biznesni rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish va ularga mos strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Sohaviy tahlillar asosida aniqlanishicha, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarda (Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari) agrar biznes faoliyatining salohiyati mavjud bo'lsa-da, qayta ishlash korxonalarining kamligi, logistika zanjirlarining rivojlanmaganligi tufayli kichik biznes subyektlari mahsulotni ichki va tashqi bozorga chiqarishda muammolarga duch kelmoqda. Shuningdek, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlar (Buxoro, Xiva, Samarqand)da servis va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi kichik bizneslar muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, ularning aksariyati mavsumiy xarakterga ega va barqaror daromad manbai sifatida yetarlicha qo'llab-quvvatlanmagan.

Empirik tadqiqotlar natijalari ham ushbu xulosalarni tasdiqladi. Jumladan, intervyular orqali aniqlanishicha, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan tadbirkorlar o'z faoliyatini mahalliy ehtiyojlarga moslashtira olgan, innovatsion yondashuvni joriy qilgan va davlat dasturlaridan foydalangan subyektlar hisoblanadi. Boshqa tomondan, imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, axborot yetishmovchiligi yoki institutsional qo'llab-quvvatlovning zaifligi sababli ularni to'liq ishga sololmayotgan hududlar ham mavjud.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan hududiy imkoniyatlarning aniqligi, ulardan foydalanish darajasi va ular asosida ishlab chiqilgan mahalliy strategiyalar bilan chambarchas bog'liq. Mamlakat miqyosida kichik biznesni rivojlantirish uchun hududlararo tafovutlarni kamaytirish, har bir hududning o'ziga xos resurslariga moslashtirilgan rivojlanish modelini joriy etish lozim. Hududning tabiiy va infratuzilmaviy resurslari, ijtimoiy muhit va davlat siyosati kichik biznesning muvaffaqiyati uchun asosiy omillardir. Shuningdek, hududlararo farqlarni kamaytirish va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish kichik biznesni barqaror rivojlantirish uchun muhim shartlardir.

Biroq kichik biznes har bir hududda bir xil darajada rivojlanmayapti. Buning asosiy sababi — har bir hududning o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy, demografik, infratuzilmaviy va madaniy imkoniyatlarining mavjudligidir. Masalan, suv resurslariga boy hududlarda irrigatsiyaga asoslangan dehqonchilik, sanoat markazlarida esa ishlab chiqarish va texnologik xizmatlar tezroq rivojlanmoqda. Shu sababli, kichik biznesni

rivojlantirishda umumiy yondashuv emas, balki **hududiy xususiyatlarga moslashtirilgan, joyiga xos yondashuv** muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlar o'rtasida mavjud tafovutlar, resurslardan foydalanish darajasi va infratuzilmaning nomutanosibligi kichik biznes rivojida muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish va kichik biznesni har bir hududda barqaror rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, har bir viloyat va tuman o'zining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan kelib chiqqan holda kichik biznesni rivojlantirishda ixtisoslashgan strategiyani ishlab chiqishi lozim. Bu strategiya mahalliy sharoit, mavjud resurslar va bozor ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi va eksportga mo'ljallangan bog'dorchilik, Buxoro va Xorazmda esa turizm va xizmatlar sohasini ustuvor rivojlantirish mumkin.

Ikkinchidan, kichik biznes subyektlari faoliyatining kengayishi uchun eng asosiy shart — infratuzilmaviy muammolarni hal etishdir. Ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda elektr energiyasi, suv ta'minoti, yo'l va internet infratuzilmasining yetishmasligi kichik tadbirkorlikka to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, hududiy infratuzilma loyihalari ishlab chiqilganda kichik biznes ehtiyojlari alohida e'tiborga olinishi lozim.

Uchinchidan, hududlarda kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish va kengaytirish zarur. Imtiyozli kreditlar, subsidiya va grant dasturlarining hududlar kesimida teng taqsimlanmagani aniqlangan. Shu bois, ayniqsa iqtisodiy jihatdan zaif hududlarda alohida investitsiya va mikromoliyaviy fondlar tashkil etilishi, banklar bilan hamkorlikda mikrokreditlar tizimi joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Har bir tuman markazida tadbirkorlik ofislari, biznes-inkubatorlar yoki maslahatchi punktlar tashkil etilib, bu yerda loyiha tayyorlash, huquqiy maslahatlar, elektron tizimlardan foydalanish va davlat dasturlari haqida ma'lumotlar taqdim etilishi lozim.

Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlari o'rtasida kooperatsiya va klasterlashuv jarayonlarini rag'batlantirish lozim. Bu esa resurslardan yanada samarali foydalanishga, mahsulotlar tannarxini pasaytirishga va ichki hamda tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references)

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional o'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Lex.uz.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori (2017). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi.

3.Beck, T., & Demircuc-Kunt, A. (2006). Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. *Journal of Banking & Finance*, 30(11), 2931-2943.

4.Mahkamov, B., & Sobirov, N. (2021). Hududiy ixtisoslashuv va kichik biznes rivoji. *O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnali*, 4(2), 45-58.

5. Milliy Iqtisodiyot Universiteti Tadqiqotlari (2019). Hududiy imkoniyatlar va kichik biznes rivoji. Toshkent: NMI.
6. Jahon Banki (2020). *Uzbekistan Regional Economic Development Report*. Washington, D.C.: World Bank Publications
7. Davlat statistika qo‘mitasi (2022). *O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari hisobotlari*. Toshkent.
8. Storper, M., & Venables, A. J. (2004). Buzz: Face-to-Face Contact and the Urban Economy. *Journal of Economic Geography*, 4(4), 351–370.
9. Rahmonov, D. (2020). Innovatsion rivojlanish va hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish. *Toshkent Iqtisodiyot Universiteti Ilmiy Axboroti*, 3(1), 22-
10. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
12. Shaxidova Dilafruz Muxtarovna *ECONOMIC DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN*. T A D Q I Q O T L A R jahon ilmiy – metodik jurnali 4-tom. 47-son. 133-136. ISSN: 3030-3613